IMOM AL-BUXORIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Xikmatillayeva Shoiraxon
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Tarix (islom tarixi va manbashunosligi) 3-bosqich talabasi
Xikmatillayevashoiraxon@gmail.com +998887204474
https://doi.org/10.5281/zenodo.20553952

Annotatsiya: O'rta asr islom olamida hadis ilmi sohasi rivojida Imom al-Buxoriyning hissasi beqiyosdir. U nafaqat hadisshunos olim, balki ta'lim-tarbiya sohasida ham o'ziga xos qarashlarga ega bo'lgan. Ushbu maqolada Imom al-Buxoriyning pedagogik qarashlari tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: Hadis, sunnat, muhaddis, Qur'oni Karim, ilm, ta'lim-tarbiya, odob-axloq, "Al-jome' as-sahih".

Sharq uyg'onish davri mutaffakir olim Imom Al-Buxoriy markaziy osiyo renesansi davrida yashab ijod etdi. Imom Al-Buxoriy asl ismi(Abu Ablullox Muxammad ibn Ismoil ibn Ibroxim ibn Mug'iyra ibi Bardazbex Juafiy Buxoriy)xijriy hisobda 194-yil shavvol oyining 13-sanasida (milodiy 810-yil 20 iyulda) Buxoro shaxrida tavallud topgan.[1] Boshqa olimlardan farqli o'laroq Buxoriy tug'ilgan sananing aniqligiga sabab shuki, uning otasi Ismoil o'z davrining ilmli odamlaridan bo'lib,ug'lining tug'ilgan kuni-ni o'z qo'li bilan yozib ketgan va bu qog'oz zamondosh olimlar ixtiyoriga yetgan, shu boisdan xam uning aniqligiga hech shubxa yo'q.[2]. Buxoriy otasidan erta ajraydi, uning tarbiyasi bilan onasi shug'unlanadi. U bolaligidan ilim marifatga oshno bo'lib o'tkir zehnli va turli ilm fanlar ayniqsa hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi. 825-yili 16 yoshida onasi va akasi bilan safarga otlanib, Balx, Basra, Kufa, Bag'dod, , Damashq, Makka va Madina shaharlarida bo'lgan,u yerlardagi hadischi olimlardan ilm olgan. U joylardagi mashxur olimlardan xadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim olib, yirik olimlar davrasida ilmiy baxslaru munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. Imom Buxoriy hayotining ko'p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o'tgan. Bu haqda uning o'zi:«Misr, Shom, Mesopotamiyaga ikki marta, Basraga to'rt marta borganman Xijozda olti yil yashaganman. Bag'dod va Kufa shaxarlariga necha marta borganim xisobini bilmayman», degan ekan.

Al-Buxoriy islom ilmiga oid 20 ga yaqin katta hajmdagi asarlar yozgan u ilmini oshirish maqsadida juda ko'plab olimlardan ta'lim oladi. Nishopurlik Hakimning yozishicha, Buxoriy ustozlarining soni to'qsontalar atrofida bo'lgan. O'z navbatida Buxoriy ham ko'pgina shogirdlarga ustozlik qilgan. Mashhur muhaddis Abu Iso Termiziy Imom Buxoriyga xam shogird, hamsafdosh hisoblanib ularning munosaabatlari ibratlidir. Uning asarlarining diqqat markazida dinning inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma'naviy yuksalishi, tozaligi, donoligi, yaxshi-yomonni bir-biridan ajrata olish kabi xislatlar turadi.

Qur'oni karimning mujodala surasida: "Alloh Taolo sizlarning orangizdagi iymon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yorlaqab, martabasini ulug' qilg'aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Alloh Taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir", - deyilgan. Yana boshqa oyati karimada esa " Yo Robbiy, ilmimni ziyoda qilgin, deb ayt! ", -deyilgan. Ushbu oyatdan dunyo va oxirat omonligi, farovonligi ilm bilan bo'lishi, Yaratgandan eng avvalo ilm so'rash lozimligi ko'rinadi. Ilm olish osonlik bilan kechmaydi. Ilm olishning o'ziga xos mashaqqati, turli murakkabliklari bo'lishi tabiiy, ilm tolibi buni oldindan bilgan, ularni bo'yniga olgan holda bilim olishga kirishmog'i lozim, ana shuni nazarda tutib boshqa bir hadisda: " Ilmni Chinga borib bo'lsa ham olinglar "- deyilgan. Hadisdagi Chin faqat Xitoy yurtinigina bildirmaydi, ayni paytda u ramziy ma'noda masofa jihatdan uzoqlik, ham vaqt jihatdan uzoqlik-davomiylik va bu jarayonlardagi qiyinchilik, mashaqqatlarni ifodalaydi.

Bundan ko'rinadiki, qayerda, qachon va qay muddatda bo'lishidan qat'iy nazar, zahmatlar chekib bo'lsa ham ilm o'rganishga astoydil bel bog'lash lozim. Shuningdek, hadislarda ota-onani e'zozlash, qarindoshlarga, qo'ni-qo'shnilarga yaxshilik qilish, umuman, jamiyatga manfaat yetkazish, ta'lim-tarbiya, odob-axloq kabi mavzular yoritilgan. Xususan, Ilm o'rganmoq va ilm o'rgatmoqning fazilati to'g'risida quyidagi hadis keltirilgan: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: "Alloh Taolo menga yuborgan hidoyat(Alloh Taolo bandalariga ko'rsatgan to'g'ri yo'l, yo'llanma) singari ilm ham ko'p yog'gan yomg'irga o'xshaydi. Ba'zi yer sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi va ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan, o'ziga to'playdi, undan Alloh Taolo bandalarini foydalantiradi.Odamlar suvdan ichadi, hayvonlarini va o'simliklarini sug'oradi. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydi, ko'katni ham ko'kaytirmaydi. Bularni Olimning ishonarli to'plam asari hadisshunoslikda eng yuqori pog'onada turadi. quyidagicha muqoyasa qilish mumkin: bir kishi Alloh ilmi (islom) ni teran o'rganadi, teran tushunadi va undan manfaatlanadi va Alloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, odamlarga o'rgatadi.Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadi.Ammo o'zi amal qilmaydi.Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarga ham o'rgatmaydi.Bulardan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir". Imom al-Buxoriyning ta'lim-tarbiya xususidagi ta'limotida axloqiy qarashlar muhim o'rin tutadi. Uning uqtirishicha, baland tovush bilan o'rinsiz ko'p kulish boshqalar diliga ozor beruvchi xislat. Bu fikr quyidagi rivoyatda o'z aksini topadi:" Abu Hurayra (r.a) aytadilar: " Rasullulloh: " Tovush chiqarib kulishni kam qil, chunki ko'p kulish dilni halok (vayron) qiladi",-deydilar ".Imom Buxoriy xalqqa yoqimli,doimo ehtiromli, uning muhabbatiga sazovor bo'lishni go'zal axloqlilik deb biladi.

Xulosa qilib aytganda, Imom Buxoriyning pedagogik qarashlari hadislarda go'zal tarzda yoritib berilgan. Ushbu fikrlarda ta'lim-tarbiyaga, ilmga hamda odob-axloq masalalariga alohida e'tibor berilgan. Buxoriyning pedagogik qarashlarida ilm ulug'langan. Ilmning ulug'ligi " Kimki ilm olgan bo'lsa, payg'ambar alayhissalomdan meros olibdir" degan hadisda o'z aksini topgan. Shuningdek, ilm o'rganmoqlik " Ilm-u hikmatni orzu qilmoq" nomli hadisda go'zal tarzda ifodalangan:" Hazrat Umar (r.a.) bunday degan: " Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasullulloh (s.a.v.) ning sahobalari yoshlari ulg'ayganda ham ilm o'rganganlar. Rasullulloh (s.a.v.): " Ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz ermas: biri-kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni Haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa, ikkinchisi kishiga Alloh Taolo ilm-u hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliymaqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa",-deganlar".Chindan ham, ilm-u hikmatga ega inson ilmi tufayli oliymaqomga erishadi, ya'ni ilm insonni yuksaltiradi.Zero, ilm biz uchun eng bebaho ne'matlardan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xatib Bag'dodiy, Tarixi Bag'dod, 1/331, Dorul fikr; Ibn Asokir; " Tarixi Dimashq",52/55/6098, Dorul fikr
2. Uvatov.U "Yurtimiz allomalari'' Toshkent 2014- hilol nashr 167b
3. Ergashev Q, Hamidov H, O'zbekiston Tarixi Toshkent-2015
4. Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriy. " Al-adab al-mufrad". Toshkent-1990.
5. Ahmedov S, Qosimov B, Qo'chqorov R, Rizayev Sh. " Adabiyot " (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). Toshkent-2020.

6. Ochildiyeva, N. Q. (2022). IMOM AL-BUXORIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI. Scientific progress, 3(4), 317-320